

## **MUSTAQILLIK DAVRI ROMANCHILIGIDA AYOL RUHIYATI TASVIRI**

**Nilufar Mavlonova**

JDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo`nalishi

1- bosqich magistranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada mustaqillik davri romanchiligidagi ayol ruhiyati tasviri haqida so`z yuritilgan. Har qanday mamlakatning iqtisodiy qudrati og`ir sanoatining qanchalik rivojlanganiga qarab belgilanganidek, har qanday milliy adabiyotning insoniyat estetik tafakkuriga qo`shtigan hissasi ham undagi romanchilikning salmog`i bilan tayin etiladi. Chunki roman millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi.

**Kalit so`zlar:** adabiyot, romanchilik, ruhiyat, qahramon, personaj, ijodkor.

**Абстрактный.** В данной статье говорится об изображении женской психики в романах периода независимости. Как экономическая мощь любой страны определяется степенью развития ее тяжелой промышленности, так и вклад любой национальной литературы в эстетическое мышление человечества определяется весом ее романов. Потому что роман показывает уровень развития художественного мышления нации.

**Ключевые слова:** литература, роман, духовность, герой, персонаж, творец.

**Abstract.** This article talks about the depiction of the female psyche in novels of the independence period. Just as the economic power of any country is determined by the degree of development of its heavy industry, the contribution of any national literature to the aesthetic thinking of humanity is also determined by the weight of its novels. Because the novel shows the level of development of the nation's artistic thinking.

**Key words:** literature, novel, spirituality, hero, character, creator.

Bugungi kun ijodkori adabiyotga yangicha ruh, betakror mazmun, o`ziga xos izlanishlar bilan kirib kelishi bevosita ularning mavjud adabiy-estetik an`analarga mumtoz va G`arb ohanglarini qorishtira olganligi bilan xarakterlanadi. Milliy adabiyotimizda yangicha uslub va obrazli ifodalarning paydo bo`lishi, individual ijodiy kashfiyotlarning ortishi zamonaviy adabiyotning qamrovini kengaytirish barobarida, uni izchil o`rganish, tahlil va tadqiq qilish masalasida muayyan ilmiy ishlar olib borishga ehtiyoj tug`dirmoqda. SHunday ekan, “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko’rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo’l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak”, degan fikr o’zbek adabiyoti oldiga maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish majburiyatini yuklaydi. Badiiy ijoddagi mavjud roman va ijodkor uslubi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlardan kelib chiqqan holda ushbu adabiy jarayonga munosabat bildirish, umumiy xulosalar chiqarish Iqbol Mirzo, Jamila Ergasheva, Tilavoldi Jurayevlarning

o'ziga xos badiiy olamini kashf etish, romanchilikda ayol qalbi manzaralarining ruhiy-psixologik omillarini aniqlash maqolaning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Har qanday mamlakatning iqtisodiy qudrati og'ir sanoatining qanchalik rivojlanganiga qarab belgilanganidek, har qanday milliy adabiyotning insoniyat estetik tafakkuriga qo'shgan hissasi ham undagi romanchilikning salmog'i bilan tayin etiladi. Chunki roman millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi.

Romanning bugunini tushunish va istiqbolini bashorat qilish uchun bu janrning nima uchun, qachon va qayerda paydo bo'lganini aniqlash hamda unga xos yetakchi belgilarni tayin etish lozim bo'ladi.

Ilk romanlar milodning XII-XIII asrlarida roman tillarida so'zlashuvchi xalqlar orasida yuzaga kelgan. "Roman tillari" tushunchasi "Rim (Roma)ga tegishli" degan ma'noni anglatib, lotin tili asosida shakllangan ispan, italyan, moldova, portugal, rumin, flamand, fransuz va boshqa tillarni o'z tarkibiga oladi. Ilk romanlar paydo bo'lgan davrda Ovro'podagi deyarli barcha davlatlar uchun lotin tili rasmiy va badiiy til sanalardi. Aholining asosiy qismi esa lotin tilini bilmas, binobarin, adabiyotdan bebahra edi. Ana shunday sharoitda, aholining ruhoniyalar va aslzodalardan keyingi uchinchi va son jihatidan eng katta qatlami bo'lmish ish odamlari, kosib-hunarmandlarga tushunarli bo'lgan tildagi, ularning didiga muvofiq keladigan asarlarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Roman ana shu ehtiyoj natijasi o'laroq yuzaga keldi. Ilk paydo bo'lgan chog'ida roman tillarining birida yaratilgan asar roman sanalib, "roman tilidagi qissa yoki hikoya" ma'nosida "conte roman" deyilgan.

Romanning aynan o'sha vaqt, o'sha joy va shu shaklda paydo bo'lishiga sabab nima? Ma'lumki, antik davrdan qolgan an'anaga ko'ra barcha badiiy asarlar "yuksak poeziya" shaklida bo'lib, ularga ma'budlar, kohinlar, saltanat egalari, kam deganda, aslzodalar qahramon qilib olinardi. Uchinchi qatlama, ya'ni, mehnat kishilar uchun bu asarlarning tili tushunarsizligidan tashqari, qahramonlari ham mutlaqo begona edi. Holbuki, bu davrga kelib uchinchi qatlama ham son jihatidan, ham iqtisodiy mavqeiga ko'ra katta kuchga ega edi. Agar insoniyat tarixinining shu davriga qadar badiiy asarlar ne'matlarga egalik qiluvchi va taqsimlovchilarning didlariga muvofiq yaratilgan bo'lsa, XII asrdan e'tiboran ishlab chiqaruvchilarning didlariga mos asarlar ham yaratiladigan bo'ldi. Mehnat bilan kun ko'radigan oddiy odamlarning estetik ehtiyoji natijasi o'laroq paydo bo'lgan romanlarda aks ettirilgan voqealar, ularda tasvirlangan obrazlar va bu asarlarning ifoda yo'sini ham o'qirmanlarning intellektual darajasiga muvofiq bo'lishi tabiiy edi. Shuning uchun ham Gegel romanni nimkinoya bilan "burjuaziyaning epopeyasi" deb ataydi.

Roman uchinchi qatlama mansub kishilar didiga muvofiq dunyoga kelgan va oldin shakllangan "yuksak poeziya" namunalaridan keskin farq qiladigan janr bo'lgani uchun juda uzoq vaqt davomida adabiyot nazariyotchilarining e'tiboridan chetda qolib keldi. Deyarli yetti yuz yil mobaynida romanga xos belgilar ilmiy jihatdan tadqiq qilinmadidi. Bu boradagi ilk nazariy qarashlar romanchilarning o'zlarini tomonidan bildirildi. Faqat XIX asrga kelib, Gegel

roman nazariyasiga qo'l urdi. Aynan nazariy qolipning yo'qligi romanning xilma-xil sinkretik va qirg'oqsiz janr bo'lishiga olib keldi. Nazariy cheklovlarining kamligi sababli roman yetakchi adabiy janrga aylandi. Roman tarixiga qilingan qisqa ekskursiya uning janr sifatidagi belgilarini to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Ibtidoda insonning individual xususiyatlari, ruhiyat jilvalari tasviriga e'tibor qaratilgani bois, Belinskiy romanni "individning eposi" deb atagan. Ko'r nadiki, roman alohida shaxslarning ichki dunyosini badiiy idrok etish va izohlash yo'sini sifatida yuzaga kelgan.

Ijodkor nazmga sig'magan dardlarini nazmga to'kadi. Shoir Iqbol Mirzoning "Bonu" romani 2016-yilda yozib tugallangan. Roman epistolyar uslubda bo`lib, unda ayol ruhiyati tasviri ya ni Bonuning ko'rgan-kechirganlari maktublar, yozishmalar shaklida bayon qilingan. Romanda ayol ruhiyati tasviri:

Asardagi eng salbiy obrazlardan biri - Dilbar. Uning uchun ayollik sha'nining ikki chaqalik qiymati yo'q. Suvrati inson siyrati shayton. O'zining qilmishi yetmaganidek Bonuni ham nopol yo'llarga boshlamoqchi ekanligi tasvirlangan.

Shoira opa - farishtaning o'zi. Hamma Bonudan yuz burib ketganda unga suyanch bo'ldi. Qotgan non yeb bo'lsa ham farzandlariga halol luqma yedirdi. U tufayli Bonu o'zida yashashga kuch topdi.

Bonu timsolida esa ayol matonati, ayol jasorati, ayol muhabbat, ayol sha'ni, ayol vafosi, ayol sabri aks etgan.

Roman shu yaqin kunlar, "bozor iqtisodi", "globallashuv" davri hayoti va bu hayotning serpo'rtana, sertahlika, seraldov, serro'yo voqealari va bu dog'uli voqealarni harakatga solgan, ularni "xarakterli" qilgan odamlarni sahnaga olib chiqqan.

Roman shitob bilan yozilgan va o'quvchi ham tabiiy shitob bilan voqealar ichiga, qahramonlarning taqdir dunyosiga kirib boradi.

Roman shu "bozor" zamonida ko'p fojiali damlar, fojiali sho'rishlar, ayriliqlar, xiyonatlar, sharmandaliklar, razolatlarni o'z boshidan kechirgan Bonu degan go'zal qiz – muallimaning tilidan maktublar, kundaliklar, xotiralar tarzi-usulida bitilgan. Bu juda intim, o'ta intim hikoyaki, unga "bitik" so'zi juda mos, ayni badiiy-psixologik hodisani to'g'ri ifodalaydi. Bonu bitiklari o'z hayoti tarixiga misoli girdob, misoli sahro quchog'i kabi olib kirib ketadi. Bir insonga bergen hayot, jon, tiriklik evaziga Xudo uni shunchalar ko'p, chigal, og'irdan og'ir, mushkuldan mushkul sinovlarga tashlaydiki, "axir buning ma'nosi nima?" – deb, kishi yana eng qadim "Ayyub nidosi", Ayyub sabrini eslaydi va Odam Atodan qolgan ekan-da bu dardu sinovlar, deb o'yga toladi. Go'zal Bonu Ayyubdan ham ko'proq yengish, chidash, ko'tarish, qariyb ilojsiz sinov-sinoatlarga duch keladi. Yengib o'tish, omon qolish imkonsiz bo'lib ko'ringan holatlarda u favqulodda matonat ko'rsatadi. Biz "CHol va dengiz", "Oq kema", "Qiyomat"da ham shunday favqulodda ruhoniy qudrat kasb etgan matonat – epik shoirona matonat hodisasiga duch kelganimiz. Bonu timsoli bu insoniy matonatni yana boshqa bir ulug'

harakatlantiruvchi kuch – Oriyat favqulodda quvvatlantirib, favqulodda insoniy hodisaga aylantirib turadi.

Inson jozibasi nima ekanligi, mohiyat-mazmuni nimada ekanligini biz Bonu bitiklari orqali yurak-ongimiz alam-nomusdan xinadek ezilib, u bilan birga dodu faryod ko'tarib, u bilan birga dodu faryodimizga yetolmay, kuzatib boramiz.

Girdob naqadar dahshatli ekanini Bonu bilan birga boshdan o'tkazamiz: voy-ey! Suf bu dunyo – bu dunga, deb hayqiramiz. Bonudagi umuminsoniy kuch va saliqqa kasb etgan Oriyat! Nomus! – millat, insoniyat miqyosida tarbiyalansa, ijtimoiy zaruriy kuchga – harakat va intilishdagi kuchga aylansa, qaniydi, deymiz. Bonuning tabiiy samimiyati, tabiiy oriyati o'quvchini rom etadi va bizga harakatdagi kurashchanlik namunasi bo'lib tuyuladi.

Adabiyot millatning ma'naviy xazinasi, abadiy uyg'oq ruhi va qalbidir. Dardi bor, armoni bor odam yozadi. Bu beshafqat hayot suqmoqlarida yiqlib-surinib, peshonasi toshga tekkan odam yozadi. Shubhasiz, ayol obrazi dunyo adabiyotida muhim o'rinn tutadi.

Roman janriga xos belgilarni tayin etish borasida o'zbek adabiyotshunosligida ham ancha ishlar qilingan. Agar dastlabki tadqiqotlarda hajmning kattaligi va mavzu janrining asosiy belgilari sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik romanning mohiyati o'zga unsurlardan ham qidirila boshlandi. Chunonchi, adabiyotshunos professor Dilmurod Quronov: "... asarda qo'yilgan muammolar ko'ldami janr xususiyatlarini belgilovchi unsur sifatida olinishi mumkin. Bu jihatdan... roman dunyo-yu davrni bilish maqsadiga qaratilgan bo'lsa, qissa markazida qahramon xarakteri, hikoyada esa konkret hayotiy voqeа turadi... Ko'ramizki, roman, qissa, hikoya janrlariga mansub asar qahramonlari asarda tutgan mavqeи, ahamiyati, vazifasi jihatidan farqlanadi. Roman muallifi uchun qahramon vosita – dunyonи anglash (bunisi maqsad) vositasi, qissanavis uchun qahramonning o'zi maqsad (voqeа-hodisalar vosita), hikoyanavis uchun voqeanning o'zi maqsad bo'lib qoladi". Olimning roman dunyo-yu davrni bilish maqsadida yaratiladi va uning qahramoni ana shu jarayonning vositasi degan fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki yuqorida keltirilgan dalillar roman dunyonи emas, balki aynan individni anglash maqsadida yuzaga kelganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda o'zbek romanchiligi o'z taraqqiyotining polifonik bosqichiga yetib keldi. Endilikda, mavzuning dolzarbligi, voqealarning qiziqarli yoxud tilning shirali ekani romanni o'qishli qilgani holda, uning umrzoqligini ta'minlay olmasligi mumkinligi anglab yetildi. Zamonaviy o'zbek romani muallifidan har bir qahramonini tushunish va aks ettirishning birovnikiga mutlaqo o'xshamaydigan konsepsiyasiga ega bo'lish talab qilinadi.

Umumlashtirib aytganda, mustaqillik davri o'zbek romanchiligidida romaniy tasvirning yangicha qatlamlari o'zlashtirilib, milliy romanchilik yangi timsollar bilan boyib borayotgani kuzatishimiz mumkin.

## **Adabiyotlar**

1. Гегель. Эстетика. Т. 3. С. 384—385.
2. Тимофеев Леонид Иванович. Теория литературы. Москва: Учпедгиз, 1946. - С.46.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 51-52.
4. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б.20.
5. Хализев В. Е.Теория литературы: Москва «Высшая школа» 2004. С.16.
6. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.
7. Mirvaliyev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2007. – B.74.
8. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б.539-544.
9. Улуғов А. Қалб қандили.. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.186.
- 10.Сулаймонов А. Уфқлар ортидаги йўл // Шарқ юлдузи, 2016, № 5. – Б.124-132.
- 11.Норматов. У. Ижодкорнинг ҳароратли сўзи. – Тошкент. "Турон замин зиё", 2015. – Б.106.